

**“O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJda
“Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi” mavzusida
o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi**

Joriy yilning 2-iyun kuni birjaning markaziy apparati binosida birja xodimlari uchun “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini samarali joriy etish – faoliyatning raqobat qonunchiligiga muvofiqligini ta’minlash garovi” mavzusidagi o‘quv-amaliy seminar tashkil etildi.

“O‘zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi” AJ Komplayens nazorat va axborot xavfsizligi Bosh boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan seminarda birjaning markaziy apparat xodimlari bilan birga hududiy filiallar xodimlari, Zoom videokonferensiya dasturi orqali, ishtirok etdi.

Seminarda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Monopoliyaga qarshi komplayensni joriy etish bo‘limi boshlig‘i T. Abdurashidov so‘zga chiqib, monopoliyaga qarshi komplayens tizimi tushunchasi raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, huquqbazarliklar xavfini aniqlash va ularni oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Bundan tashqari monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy vazifalari, tizim bo‘yicha vakolatl shaxsning asosiy vazifalari hamda tizimni tashkil etish va uning ishslash samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risida seminar ishtirokchilariga qisqacha tushunchalar berib o‘tildi.

O‘quv seminari davomida Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlariga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i M. Kamilov tomonidan davlat xaridlari va savdolarida raqobatga zid harakatlar to‘g‘risida, jumladan davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar, davlat xaridlarida raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar to‘g‘risida atroflicha ma’lumotlar berib o‘tildi.

Shu bilan birga, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan davlat xaridlari sohasida raqobatga qarshi harakatlarni aniqlash jarayoni hamda qo‘mita tomonidan davlat xaridlari sohasida aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha statistik ma’lumotlar bilan seminar ishtirokchilarini tanishtirib o‘tdi.

Seminar yakunida ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.